

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

№ 31-32 (67300-01)  
2020-yil 24-avgust



MASOFANI SAQLANG!

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



## «BIR MAKON - BIR YO'L» MENING QALBIMDA»

*bolalar rasmlari tanlovi g'oliblari taqdirlandi*

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, gazetamizning 2020-yil 9-sonida «Bir makon, bir yo'l» mening qalbimda» mavzusidagi bolalar o'rtasida rasmlar tanlovi e'lon qilingan edi. Unga mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlaridan 283 ishtirokchi 336 ta o'zi chizgan rasmlar bilan qatnashdi. 5-16 yoshli bolalar cheksiz qumlar oralab ketayotgan savdo karvonlari, bugungi O'zbekiston va Xitoy ko'rinishlari, ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlari kabi mavzularda tasavvurlarini turfa xil ranglarda jilo berib chizganlar.





(Davomi. Boshi 1-betda)



– Mazkur tanlovda g'oliblar bor, ammo mag'lublari yo'q, – dedi O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi Farg'ona viloyat bo'limi raisi Muhammadjon Obidov. – Chunki mavzu yuzasidan rasm chizish uchun bolalar o'qib o'rgandilar, axborot izladilar, dunyoqarashlari kengaydi, bilimlari oshdi. Bizning asosiy maqsadimiz ham aslida shu edi.

## «BIR MAKON, BIR YO'L» MENING QALBIMDA» bolalar rasmlari tanlovi g'oliblari taqdirlandi

Nufuzli hay'at tanlov ishtirokchilaridan 15 nafarini g'olib deb topdi.

G'oliblarni taqdirlash bugungi sharoitdan kelib chiqib onlayn videokonferensiya tarzida bo'lib o'tdi. Unda 15 nafar g'oliblar, Xitoyning O'zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Szyan Yan xonim hamda O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi Farg'ona viloyat bo'limi raisi Muhammadjon Obidov ishtirok etdilar.

– Tanlov g'olibi bo'lgan bolajonlarni tabriklar ekanman, ularning mahorati, yuksak tasavvur olami keng va ikki davlat xalqlarining tarixiy hamda zamonaviy munosabatlari haqida yetarlicha bilimga ega ekanligini alohida ta'kidlamoqchiman, – dedi elchi Szyan Yan xonim. – Ishonchim komilki, mening yosh rassom do'stlarimda hali ular tasavvur qilib chizgan dunyodagi eng katta Taklimakon qum-barxanlari, Pekin, Xotan, Sian kabi tarixiy shaharlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish imkoni bo'ladi.

Onlayn videokonferensiya chog'i g'oliba, buxorolik Adel Hikmatova so'z olib, tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirar ekan, men ko'hna Buxoro tarixi «Buyuk ipak yo'li» bilan bog'langani, Chin degan mamlakat hunarmandchiligi va san'at asarlari shu yo'l tufayli yurtimizga kelganini bilib oldim, dedi.

O'n yoshli Bibixonim Olimjonova ikki xalq bolalari qo'l tutib kelajakka odimlayotganini tasvirlagan edi.

– Men shu tanlov orqali o'zim kabi yosh rassomlardan dugona, do'stlar orttirdim, – dedi u.

– Taqdirlash tadbiri menga bir umr unutilmas xotira qoldirdi, – dedi farg'onalik Go'zal Ibrohimova. – Bu birinchi davlat bugun Szyan Yan xonimdek Xitoyning davlat arbobi bilan muloqot qilganim bo'lsa, ikkinchidan, ular bizni o'zbek tilida tabriklagani bo'ldi. Kelgusida mendan rassom chiqadimi, bilmadim, ammo Szyan Yan xonimga o'xshagan ilmi, barcha millat, xalqlarni hurmat qiladigan inson bo'lishga intilaman.

– Ijodkor bolajonlarimizdagi qiziqishni ko'rib, shunday xulosaga keldik, biz kelgusida «O'zbekiston – Xitoy munosabatlari haqida nima bilasiz?» degan mavzuda insho tanlovi o'tkazamiz, – dedi elchi Szyan Yan xonim.

Sarvar OBID

# QISHLOG'IMNI DUNYOGA TANITAMAN

bu buxorolik yigitning orzusi

Har bir ishda hikmat bor, deganlaridek, pandemiya munosabati bilan yurtimizda joriy qilingan karantin tufayli bu yil abituriyentlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Ayniqsa, til bilgan yoshlar xorijiy oliy o'quv yurtlariga kirish uchun onlayn imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tmoqdalar. Shoir Avaz O'tar yozganidek:

**Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting, foydali kondur.**

Buni hikmatning ma'nosini to'g'ri anglab, xorijiy tillarni o'rganayotgan, turli tillarda biyron, ravon so'zlayotgan yoshlarga havasimiz keladi va beixtiyor, «Eh, sening yoshliging menda bo'lsaydi» (Erkin Vohidov), deymiz. Buxorolik yoshlar, mana bir necha yillarki, fan olimpiadalarida faol qatnashib,

tili fanlaridan o'tkazilgan olimpiadalarda ishtirok etdim, «Bilimlar bellashuvi»da bilimimni sinovdan o'tkazdim. Bu yil men uchun juda omadli yil bo'ldi. 20 dan ortiq nufuzli oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirib, Koreya, Kanada, Berlin, Vestminster va Germaniyaning TOP 10 ta universiteti talabasi

ham talaygina. 2018-yilda iqtidorli o'quvchilar o'rtasida informatika fanidan o'tkazilgan innovatsion olimpiadada faxrli o'rinni egalladi. 2019-yilda esa «Mening innovatsion g'oyam» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Mexanik-texnik loyiha» va «Maketlar» yo'nalishi bo'yicha faxrli o'ringa munosib topildi. Termiz shahrida o'tkazilgan «Alo ta'til» dam olish va ijod oromgohida tashkil etilgan o'quv seminarida bildirgan fikrlari, «Mening ijod mahsulim» o'quvchi-yoshlar media festivali Respublika bosqichidagi ishtiroki uchun XTV va Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi. Uning bunday yutuqlari haqida yana uzoq gapirish mumkin...



viloyat reytingini ko'tarib kelmoqdalar. Buxoro tumnidagi 15-umumta'lim maktabi o'quvchisi Fazliddin Ismatov «Kobdun» (dinning koni) nomli qishloqda oddiy oilada dunyoga keldi. Oila boshlig'i – Ichki ishlar bo'limi xodimi Ibod aka umr yo'ldoshi Dilbar Muhiddinova bilan birgalikda 3 nafar farzandlarini jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, bilimli, ilmi bo'lib voyaga yetishi uchun barcha zarur sharoitni yaratib berishdi.

– Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida tahsil olayotgan Jonibek akam doim menga til o'rganish katta imkoniyatlar omili ekanini ta'kidlab, motivatsiya berib keladilar, – deydi Fazliddin erishgan yutuqlarining omili haqida to'xtalar ekan. – Maktabda ham matematika, ingliz

bo'ldim. Bu yutuqlar zami-rida maktabimiz rahbari Qosim Kalonov, ustozlari Qosim Abdullayev, Maxsad Tojiyeva, Hafiza Orziyeva va albatta, ota-onamning mehnatlari beqiyos. Ularga sevimli gazetam orqali minnatdorlik bildiraman.

Fazliddin o'ta vazmin, kamtar, kamgap yigit bo'lgani uchun ham yutuqlari haqida so'raganimizda, jo'yali javob ololmadik.

– Fazliddin kam gapirib, ko'p ishlaydi, – deydi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Gulbahor Rahmonova. – O'zgalarni tinglashni biladi, do'stlarini hurmat qiladi, ona qishlog'ini sevadi. Darsdan bo'sh vaqtlarida issiqxonada bodring, pomidor yetishtiradi, tomorqada jon dili bilan ishlaydi.

Qo'lga kiritgan yutuqlari

«Men aql egalari bo'lmish matematiklar oldida bosh egaman» deb yozgan edi Albert

Eynshteyn. Haqiqatan, matematika – fanlar shohi, sardori. Fazliddin balki shu sabab matematikaga o'zgacha mehr qo'ygandir. Balki tomirida oqayotgan buyuk ajdodlari al-Xorazmiy, Forobiy qoni uni izlanishga undayotgan bo'lsa, ajab emas.

Eng quvonarlisi, bir necha xorijiy davlatlardagi oliy o'quv yurtlarida o'qish huquqini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, Vatani ni suvgan, unga xizmat qilishga bel bog'lagan Fazliddin o'z ona yurtida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha o'qib, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shishni oldiga maqsad qilib qo'yg'an. Biz esa unga ishonamiz!

**Mahmuda VALIYEVA,  
«Sog'lom avlod uchun»  
ordeni sohibasi**



# YANGI O'QUV YILIGA YANGI MAKTAB



**Sirdaryo viloyatidagi  
Sardoba suv  
ombori toshqinidan  
talafot ko'rgan  
16 ta umumta'lim  
maktablarida qurilish-  
ta'mirlash ishlari  
qizg'in davom etmoqda.**

Eski devorlari sho'rlanib, nurab ketgan, deraza oynalari sinaverib yamaydigan joyi qolmagan maktablar

yangi o'quv yiliga tamoman o'zgacha qiyofa kasb etishi kutilmoqda. Jumladan, Oqoltin tumanidagi «Saxovat» mahallasida joylashgan 14-umumta'lim maktabi toshkentlik quruvchilar tomonidan qayta ta'mirlanmoqda. «MDF FORMATION» MCHJ quruvchilari oqoltinlik o'quvchilarga Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi yangi maktablar andozasi asosida ta'lim koshonasini bunyod etyaptilar. Endilikda sardobalik tengdoshlarimiz poytaxtlik o'quvchilardan kam bo'lmagan holda, yangi o'quv yilini yangi maktabda boshlaydilar.

Azizbek ABDUMALIKOV,  
poytaxtimizdagi 202-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Avvalgi o'quv yilida maktabimizda o'quvchilar soni sezilarli darajada ko'paydi. Shu bois, o'quv anjomlari – stol-stullar yetishmovchiligi, doskalarning eskirgani kabi bir qator muammolar kelib chiqdi. Stul yetishmasligi sabab boshlang'ich sinfxonalaridan olib chiqib, kichkina stullarda sig'may, qiyalib o'tirardik.

## BIR XUSHXABAR ESHITDIM...

Yaqinda yangi xushxabar eshitdim: hade-may maktabimizga yangi partalar, doskalar keltirilgan ekan. Garchi bu yil maktabni bitirgan bo'lsam-da, baribir bu xabardan quvondim. Chunki ularda endi uka-singillarimiz o'tirishadi. O'tirgan o'rindig'im sinib ketmasmikan, degan xavotir ularning xayolini bo'lmaydi, diqqatini jamlab, darsni qunt bilan o'zlashtirishadi.

Keyingi yillarda viloyatimiz, tumanimiz yanada chiroy ochmoqda.

Hasanboy SATTOROV,  
Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidagi  
16-umumta'lim maktabi bitiruvchisi

### Aziz ustozlar, o'quvchilar! Siz ham bizga yozib yuboring. «Bir kuni darsda...». nima bo'lgandi?

**1-sinf o'quvchisi edim. Odinoxon ustozimiz jajji qo'lchalarimizni ushlab, harflarni yozishni o'rgatar, Alifbodagi harflarni qayta-qayta takrorlatardilar.**

Bir kuni darslar tugab, uyga qaytishimda ustoz qo'limga nimalardir yozilgan qog'ozni tutqazdilar va ota-onamga berishimni aytdilar.

Harflarni endi o'rgana boshlaganimiz tufayli hali o'qishni bilmasdim. O'sha «nimadir» yozilgan qog'ozchani uyga kelgach to'g'ri dadajonimga berganman. Shundan so'ng, dadajonimni menga e'tiborlari kuchaydi, menga nisbatan qattiqqo'llikni oshirdilar. Hatto kaltak yegan paytlarim ham bo'ldi. Ko'paytirish jadvalini yodlatish uchun esa qish fasli – sovuq bo'lishiga qaramay tashqariga chiqarib qo'yib yodlatganlari sira yodimdan chiqmaydi.

Oradan ancha yillar o'tdi. Hozirda 11-sinf o'quvchisiman. Ustozimiz bizga o'rgatgan harflardan so'zlar, so'zlardan esa gaplar tuzdik. Bugungi kunda har bir sinfdoshim o'z shaxsiy fikrini hayotning ko'zlariga tik qarab ayta oladi. O'sha o'zlashtirishim yaxshi emasligi haqida yozilgan qog'ozcha uchun ustozimga shu paytga qadar rahmat aytmagan bo'lsam-da, bugun ularga g'oyibona minnatdorligimni izhor etaman. Hozirgi kunda jurnalist bo'lish yo'lida izlanib intilmoqdaman. Nafaqat maktabimning, balki mahallamning ham faxriga aylanganman. Adabiyot darslarida lirik chekinish sifatida ustozlar bilan mushoiralar o'ynayman. Sinfdoshlarim men bilan g'ururlanishadi. Bularning barchasiga dadajonimning qattiqqo'lligi bois erishdim.

Muhtaram HASANOVA,  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston  
tumanidagi  
68-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Ortda qolgan yillar, bolalik sog'inchi, ajoyib, beg'ubor xotiralar insonga zavq bag'ishlaydi. Shoir aytganidek: «Umrimning bahori, baxtiyor yoshligim...». Inson hamisha bolalik xotiralarini, yoshlik zavqini yurak-yurakdan his qilib, a'lo yoki tushkun kayfiyatda eslab yashaydi...**

O'quvchilik yillarimiz edi. Ayrim fanlar ixtisoslashtirilgan 28-maktab-internatida tahsil olardik. Matematika, ona tili va ingliz tili fanlari chuqurlashtirilib o'tilardi. Mening eng sevgan fanim ingliz tili edi. Ustozimiz

Abdumutallib Nazarov judayam talabchan, mahoratli, mehribon, bir so'z bilan aytganda, fidokor ustozlardan edi.

Bir kuni ingliz tili darsi boshlanishidan avval ko'pchiligimiz uyga berilgan matnni tarjima qilmaganligimiz bois, sinfimizning eng a'lochi o'quvchisidan ko'chirib oldik. Dars boshlandi. Ustoz odatdagiday uyga berilgan vazifani navbatma-navbat o'qib berishimni so'radi. Birinchi o'quvchi «Qo'limdagi non bo'lagimni sichqonimga berdim», deya o'qiyotganga, uni to'xtatdi va keyingi o'quvchidan aynan shu jumlaning tarjimasini so'radi. U ham birinchi sinfdoshimiz singari o'qib berdi. Ustozning jahli chiqa boshladi, yana bir necha sinfdoshimizdan so'rab, oxiri o'sha a'lochi o'quvchidan so'radi. U ham hech narsa bo'lmaganday tarjimasini o'qib berdi. Shunda ustozimiz bu jumlaning noto'g'ri tarjima qilganimizni, sichqonga berdim, deb emas, o'z og'zimga soldim, deb tarjima qilishimiz kerakligini aytib, ko'chirmachiligimiz uchun yaxshigina tanbeh berganlar.

Komilaxon AZIZOVA,  
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



**Dadajon, sizni judayam yaxshi ko'raman. Menga bildirgan ishonchingizni, albatta, oqlayman. Ayajonim menga «Shoiramga ko'z tegmasin», deya ko'zmunchoqlar taqib qo'ymaydilar, aksincha, dadajonim bilan qo'llarini ochib duo qiladilar. Judayam baxtliman. Farzand uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak.**



Abdumutallib Nazarov judayam talabchan, mahoratli, mehribon, bir so'z bilan aytganda, fidokor ustozlardan edi.



# BIR MAYIZNI QIRQQA BO'LIB BAHAM KO'RGAN XALQ

**Shohista ORIPOVA, Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 41-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:**

– Yaqinda oilamiz bilan shahar markaziga borgandik. Qisqa vaqt mobaynida ona shahrimizning tanib bo'lmaz darajada o'zgarib ketganini, butunlay yangicha qiyofa kasb etganini ko'rib, qalbimda shunday masrurlik, xotirjamlik, faxr-u iftixor tuyg'usi uyg'ondi, bu holatimni so'z bilan ham ta'riflay olmayman. Yo'l bo'yida qad ko'targan va ko'tarayotgan muhtasham binolar, viqorli imorat-



lar shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Yurtimizning eng chekka qishloqlariga yo'lingiz tushsa, u yerlarda ham xuddi shunday

manzaraga guvoh bo'lasiz...

Qahatchilik, qiyinchilik zamonlarida yashagan ajdodlarimiz esa faqat muborak hayit ayyomlaridagina farzandlariga sovg'a ulasha olganliklarini ularning hikoyalari, nodir asarlarimiz orqali bilib olamiz. Quvonarlisi shundaki, bugun yurtimning barcha shahar va viloyatlarida obod va farovon, tinchlik shukhi har qadamda ufurib turibdi...

Bugungi pandemiya sharoitida, ko'rinmas yov butun dunyoni o'z izmiga bo'yusundirishga urinayotgan sinovli damlarda ona yurt, Vatani tushunchasi men uchun o'zgacha mazmun kasb etdi.

Vatani tuyg'usini, unga bo'lgan muhabbatimni har lahza his qila boshladim. Qadrdon maskanim

– maktabim, har kuni nolib-nolib, qor-u yomg'irli kunlarda qiyinalib yuradigan qishlog'imning chang ko'chalari – Vatanim. Bugun ularning har qarichi oltinga teng, go'yo. Anchadan buyon ko'rish nasib qilmayotgan tumanimiz markazi, hayot qaynaydigan bozorlarimiz, do'konlar, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari – bularning barchasi mening Vatanim ekanligini endi his etyapman.

Birlashsak, hamjihat bo'lsak, albatta, bu sinovli kunlar ortda qolajak. Zero, biz bunday og'ir, sinovli kunlarni ko'p boshdan kechirgan, bir mayizni qirqqa bo'lib yegan xalqimiz.

## BUGUNING QAHRAMONLARI

**Bugungi sinovli kunlarda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, koronavirus bilan og'rikan bemorlarni davolayotgan Ibn Sino avlodlari bo'lmish shifokorlarni haqiqiy qahramonlar, desak arziydi.**

Ular yoz fasli, jazirama issiq bo'lishiga qaramay, niqob, qo'lqop va maxsus kombinzonlarda bemorlarni davolamoqda. Yaqinda ularning bir guruhi Prezidentimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

Shuningdek, Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlarini ham bugun qahramonlari, desak, adashmaymiz. Ularning fidoyiligi, o'z kasbini vijdonan bajarayotgani bois, yurtimizda koronavirus avj olib ketmayapti. Ular tun-u kun sergak bo'lib, fuqarolarning karantin qoidalariga amal qilishlarini nazorat qilishyapti.

Menga qolsa, mamlakatimiz rahbari



Shavkat Mirziyoyevni qahramonlarning eng kattasi, degan bo'ladim. Yurtboshimiz boshchiligida qisqa fursatda shifoxonalar va karantin markazlari qurilyapti. Biz o'quvchilarning karantin davrida «Onlayn dars»lar orqali ta'lim olishimiz ham Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirildi. Shu loyiha tufayli ta'lim olishimizda uzilishlar bo'lmadi.

Bugungi kun qahramonlari! Biz sizlar bilan faxrlanamiz!

**Mirfayzбек  
ABDULLAYEV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qarshi shahridagi  
4-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi**

## HECH QANDAY VAZIYAT BILIM OLISHIMIZGA TO'SQINLIK QILA OLMAYDI

**Ochig'ini aytsam, karantin e'lon qilinib, maktabdagi darslarimiz odatdagidan avvalroq tugaganida, yuragim xijil bo'lgan edi.**

«Endi nima bo'ladi?», «Qanday bilim olamiz?», degan o'nlab savollar nafaqat meni, balki barcha tengdoshlarimni o'ylantirib qo'ygandi. Ammo ko'p vaqt o'tmay zangori ekran orqali onlayn darslarni maroq bilan kuzata boshladik. Tan olish kerak, avvaliga biroz qiyinchilik bo'ldi, ya'ni bizni qiziqtirgan savollarni odatdagidek o'qituvchiga bera olmadik, ammo bir yomonning bir yaxshisi bor, deganlari bejiz emas ekan, sababi, o'zimizni qiziqtirgan savollarni kitob o'qib topishga o'rgandik.

Bilasizmi, karantin boshlangandan beri onlayn so'zi lug'atimizda ko'p ishlatiladigan bo'ldi. «Onlayn dars», «Onlayn savol-javob», «Onlayn suhbat», «Onlayn-tanlov» va hokazo... Internetdan to'g'ri foydalanish tushunchasini endi anglab yetdim. Ko'plab tengdoshlarim qatori men ham bir necha tanlovlarda ishtirok etib, nufuzli sovrinlarga ega bo'ldim. Jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Xorazm, Toshkent va Qashqadaryo viloyati sardorlari Kengashi tomonidan o'tkazilgan «Online questions» loyihasida ishtirok etib, sertifikatlariga ega bo'ldim. Eng quvonarlisi, Yoshlar ittifoqi Namangan viloyati sardorlari Kengashi tomonidan tashkil etilgan #Bilim+Kitob tanlovida ishtirok etib, g'olib bo'ldim va sovringa Planshet oldim. Bir so'z bilan aytganda, ta'til davrida biror kunimiz bo'sh o'tmayapti. Men o'zim uchun hozirgi kunlarimizga mos keladigan favqulodda shior topdim: «Hech qanday vaziyat bilim olishimizga to'sqinlik qila olmaydi».

Shunday ekan, barcha tengdoshlarimga qarata, ayni sinovli kunlarda bir-birimizga yelkadosh bo'laylik, o'zimiz va yaqinlarimizni asraylik, deymen.

**Ravshanbek RAISOV,  
Namangan shahridagi  
82-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

## MAKTABIMNI SOG'INDIM

**Biz kundan kunga chiroy ochayotgan, taraqqiyotning yuqori cho'qqilari sari dadil odimlayotgan muqaddas O'zbekiston zaminida yashamoqdami.**

Dunyo bo'yab esayotgan notinchlik shabadasini bizning yurtimizga ham kirib kelgan bo'lsa-da, matonatli xalqimiz bu sinovli kunlarda o'zining mehr-oqibatini, birdamligini namoyish etmoqda.

Karantin, ta'til sabab onlayn tarzda o'tkazilgan fan olimpiadalari, turli xil tanlovlar ukam va mening bilimlarimizni yanada charxladi.

Ko'plab do'stlarim kabi men ham jonajon maktabimni, mehribon ustozlarimni, qadrdon do'stlarimni sog'indim. Ular bilan o'tgan har bir on qanchalik qadrlil bo'lganini anglab yetmoqdaman. Maktab qo'ng'iroq tovushi-yu sinf sho'xliklari – barcha-barchasi bugun tezroq qaytishini istamoqdaman. Qahramon shifokorlarimiz ko'rinmas yov ustidan tezroq g'alaba qozonmoqliklarini istab qolaman. Biz esa do'stlar, bo'sh vaqtimizdan unumli foydalanishimiz, o'z bilimimizni oshirishimiz va eng muhimi, shifokorlarning barcha tafsiyalariga amal qilib borishimiz kerak. Zero, bu bizlarning ularga bergan eng katta yordamimiz bo'ladi.

**Jasmina KURALBAYEVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iroq tumanidagi  
43-umumta'lim maktabi o'quvchisi**



# «Boylikni bolalikdan asrang!» tanloviga

## HAR ISHNING ME'YORI BOR

**Ma'lumki, tinch-osu-  
da, quvonchlarga boy,  
bekam-u ko'st va farovon  
hayotimizda tabiiy boy-  
liklarning o'rni beqiyos.  
Toza ichimlik suvi, tabiiy  
gaz, elektr-energiyasi kun-  
dalik hayotimizda, zaruriy  
ehtiyojlarimizdan hisob-  
lanadi.**

Masalan, ertalab turganimizda gazdan foydalanib hech muammosiz choy qaynatamiz, nonushta tayyorlaymiz, ovqat pishiramiz. Gaz kundalik yumushlarimizni yengillashiruvchi asosiy vositalardan biridir. Shuning uchun ham gazdan foydalanayotganimizda uni isrof qilmaslikka ham alohida ahamiyat berishimiz kerak. Xo'sh, biz gazni qanday asray olamiz? Bu savolning javobi juda oddiy: gazni huda-behudaga ishlatmaslik, ya'ni yoniq holda qolgan bo'lsa, darhol o'chirib qoyishimiz kerak.

Har bir xonadonda bittadan gaz o'chirilsa ham, butun respublika bo'ylab juda ko'p miqdorda gaz tejiladi.

Toza ichimlik suvi ham tiriklikning asosiy manbaidir. Insonlar, jonivorlar, hattoki o'simliklar ham suvsiz yashay olmaydi. Ammo bu bebaho ne'matni ba'zi insonlar isrof qilayotganlarini ko'rib, juda xafa bo'lib ketaman. Chunki dunyoda bir qultum ichimlik suviga zor bo'lgan insonlar qancha...

Ota-bobolarimiz: «Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan», deyishgan. O'rinni savol tug'iladi: suvni isrof qilmaslik uchun nima qilishimiz kerak? Bu savolning javobi ham juda oddiy: agar suv behuda oqayotgan bo'lsa uni darhol o'chirib qo'yishimiz, tishlarimizni, idish-tovoqlarni va boshqa jihozlarni yuvayotganda suvni jo'mrakdan oqizib emas,

balki idishlarga quyib olib ishlatishimiz kerak. Bir kunda har bir inson o'rtacha 1 litr suvni tejasa, ming kishi, millionlab kishilar qanchadan qancha suvni tejagan bo'lardi.

Elektr-energiyasi ham suv va gaz kabi kundalik hayotimizdagi juda zarur ehtiyoj hisoblanadi. Siz hayotingizni televizor, chiroq, muzlatgich yoki telefonsiz tasavvur qila olasizmi? Yo'q, albatta! Shunday ekan, xuddi suv va gazni asragan kabi elektr-energiyasini ham asrash kerak. Chiroq va televizorni yoniq holda qoldirmaslik, kunduzi xonada chiroqlarni zarur bo'lmasa yoqmaslik kerak. Elektrdan foydalanayotganda, biz bolalardan ozgina e'tibor talab qilinadi, xolos. Shunday ekan, keling, aziz do'stlar, tabiiy boyliklarimizni asrashni bolalikdan o'rganaylik!



**Charosxon  
RAVSHANXONOVA,  
Toshkent tumanidagi  
9-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi**

## QORNIMIZ TO'Q, TAFAKKURIMIZ-CHI?

**Karantin davri - sog'lik eng bebaho ne'mat  
ekanligini bizga so'zsiz tushuntirib qo'ydi, sabr va  
shukur qilishni o'rgandik.**




Aksariyat tengdoshlarimiz bo'sh vaqtni mazmunli, foydali o'tkazmoqda. Ammo besh qo'l barobar emas, deganlaridek, karantin qoidalariga amal qilmayotgan yoshlar ham uchrab turibdi. Televideniye orqali efirga uzatilayotgan «25-soat» ko'rsatuvini ayrim hamyurtlarimizga ko'zgu tutgan kabi o'z xatolarini ko'rsatib qo'yimoqda. Kechasi tungi klublarda yurgan qizlar, IIB xodimlariga gap bermay, ovozingiz

boricha baqirayotgan ayollarni ko'rib, hayron qoladi kishi.

Yaqinda oynayi jahonda, adashmasam, Xorazm viloyatida edi, ko'chma kitob yarmarkasi tashkil etilganini ko'rdim. Karantin qoidalariga to'liq rioya qilingan holda kitob savdosi qizg'in ketyapti.

Ko'chamizda haftada bir necha marta oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi tashkil etildi. Vaholanki, karantin sharoitida bozorga borgandan ko'ra, o'sha ko'chma yarmarkadan xarid qilgan yaxshiroq. Narxlar ham deyarli bozor narxi bilan bir xil. Qornimiz to'q, ammo tafakkurimiz-chi? Yuqorida aytib o'tilgan ko'chma kitob yarmarkalarini butun respublika bo'ylab, iloji bo'lsa, chekka-chekka qishloqlarda ham tashkil etish kerak. Kitob mutolaasini yanada ko'paytirsak, adashgan yoshlar kamayarmidi?!

**Iroda XOLBEKOVA,  
Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi  
ijod maktabi o'quvchisi**



## TA'TILDAGI TENGDOSHIMGA

**Ta'til degani kun bo'yi televizor tomosha qilish yoki ijtimoiy  
tarmoqlarda soatlab o'tirish degani emas.**

To'g'ri, ishtiyogimiz biroq pasaygani rost, ammo atrofimizda motivatsiya oladigan hodisalar yetarli, shunday emasmi, aziz tengdoshim?! Qo'lingizda eng so'nggi rusumdagi telefon. Unda maroq bilan o'yin o'yinaysiz. Bu o'yinni yaratgan amerikalik tengdoshimiz esa ayni paytda yangi algoritim ustida ish olib borayotganidan xabaringiz bormi?

Qo'lingizga qog'oz va qalam oling-da, o'z oldingizga qo'ygan maqsadlaringizni birma-bir yozib chiqing. Ularga tezroq erishish yo'llarini izlang. Do'stlaringiz bilan telefon yoki internet orqali turli mavzularda fikrlashing. Bekorchi gaplardan emas, KELAJAK haqida so'zlashing. Yangi qirralaringizni kashf eting. Sevimli qo'shig'ingizni xirgoyi qiling, musiqa tinglang. Yaxshi filmlar tomosha qiling. Albatta, kitob o'qish yodingizdan chiqmasin. Ko'zingizni yuming-da, qo'lingizda Prezident sovg'asi - «Spark» avtomashinasining kalitini tutgan: «Ishonassizmi, tanlovdagi hal qiluvchi savol karantinda o'qigan kitobimdan tushdi. O'shanda bo'sh vaqtimni zoye ketkazmay, bilimimni boyitganim mana, o'z samarasini berdi, tanlovda g'olib bo'ldim», deya intervyu berayotgan holatingizni tasavvur qiling.

Ishoning, bunday baxtli onlar faqat xayolda emas, hayotda ham sizga nasib etishi mumkin. Buning uchun ta'til davrini o'z ustingizda ko'proq ishlash, tinimsiz izlanish uchun berilgan imkoniyat deb bilsangiz, kifoya.

**Lobarxon JALOLOVA,  
Navoiy shahridagi 11-AFCHO'IM o'quvchisi**



# ADABIYOT MILLAT TANLAMAYDI


**Sizda she'riyatga, adabiyotga mehr-muhabbat yoshligingizdan kurtak yozsa, ijodingiz boshqalar ko'nglidan joy olsa, ular sizga muxlisingizman deya tinmay maktublar yo'llasa, ijodkorlar uchun quvonchli, albatta. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Xosiyat Rustamova ana shunday muxlislari mehrini nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlarda ham qozonayotgan shoirlarimizdan biri sanaladi.**

**«Mening buyuk shoir do'stim Xosiyat Rustam!»**

Mening ijodim va o'zim haqimda aytgan bebaho fikrlaringizdan minnatdorman! Sizing har bir so'zingizda yurak bor, muhabbat bor, mehr bor. Sizni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Sizing har bir so'zingiz yuqori darajali she'rdir!.. Bir kuni Siz bilan uchrashishga umid qilaman va o'ylayman-ki, bu ikkimiz uchun ham yoqimli bo'ladi. Ko'rishguncha!»

Ushbu maktub Xosiyat Rustamovaning shu yil yozda italiyalik shoira Angela De Leoning she'rlarini tunda o'qib, undan ta'sirlanib yozgan xatiga, erta tongda unga kelgan javobdir. Masofalar uzoq, ammo she'riyat, adabiyot masofa bilmaydi.

**Bir kuni sog', bir kun esa xastadirman,  
Bir kuni bog', bir kun cho'u dashtdadirman,  
Men Sizlarni ko'rmayapman, ammo o'zim,  
Bir kuni tog', bir kun yerdan pastdadirman...**



Shoiraning she'rlari rus, ozar, tojik, ingliz, shved, golland, vyetnam, fransuz, ispan, italyan, turk, qozoq singari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Shuningdek, shoiraning Turkiya, Ozarboyjon, Vyetnam va Qozog'istonda she'riy kitoblari chop etilgan. Sevimli shoiramizning yaqinda «Rangin ko'zyoshlar» deb nomlangan she'riy to'plami

Angliyada ingliz va o'zbek tillarida chop etildi.

«Hertfordshire Press» nashriyoti tayyorlagan to'plam taqdimoti noyabr oyida Madridda bo'ladigan «Open Eurasia and Central Asia Book Forum and Literature Festival – 2020» 9-adabiy festivali doirasida o'tkazilishi rejalashtirilayotgani aytilmoqda.

Kitobga ta'rif berilishcha, «Rangin ko'zyoshlar» lirik she'rlar va kundalikdagi qaydlardan iborat bo'lib, uning har bir satri tashbehlarga burkangan. Shuningdek, Xosiyat Rustamovaning she'rlarida ayol sevgisining eng iztirobli, hayajonli tuyg'ulari uyg'un tarzda yorqin ifodalangan. Minglab qo'lyozmalar ichidan o'zbek shoirasi Xosiyat Rustamovaning yozganlari tanlab olinib, «Rangin ko'zyoshlar» nomi ostida kitob holida chop etilishi juda quvonarli holdir. O'zbek adabiyotini dunyo xalqlariga tanitishda salmoqli hissa qo'shayotgan sevimli shoiramizni adabiy g'alaba bilan tabriklab, uzoq yillik ijodiy parvozlar tilab qolamiz.

Nodira NAZAROVA

## MY FAVOURITE CHARACTER



There is a famous Uzbek proverb: «A good book is a good friend.» It is true that books are our best friends. Books broaden our imagination and enrich our speech. We can learn everything which is vital in our life. I always read interesting books in my spare time. My hobby is reading books. I like reading fairy tales, fantastic and adventure stories. My favourite book is «A magic cap,» written by children's writer X.Tukhtaboyev. The main character of this book is Hoshimjon. He is very naughty, lazy and talkative boy. He is interested in everything. Hoshimjon doesn't like doing his home works and always tries to copy them

from his friend Omon. When his mother asks to do any housework, he always uses different excuses.

Hoshimjon wants to achieve his goals easily. After finding a magic cap, he tries out different professions such as poet, teacher and agronomist. But every time he doesn't succeed, because he doesn't have sufficient knowledge. In the end, he realizes his mistakes. Anyway, every pupil who reads this book likes him very much because of his modesty and braveness. I always dream about Hoshimjon's magic cap. If I have a magic cap, I will do my best for all people of the world. I will cure the people who have disabilities. If I were invisible, I would find the people who take bribes and punish the criminals. When women begin to gossip, I'll stab needles to the back of them! I won't let the mothers leave their babies in the streets!

When I begin to read this book, nobody can stop me. I absorb to this book, I live with the characters of it. The aim of the author is to call the pupils not to waste their time and to get knowledge. Every person can achieve his goals only by studying and working hard!

Gullola JAHONKULOVA,  
the pupil of school №31, Gijduvan district, Bukhara region

## WHAT IS A GERUND?

*Gerund  
and  
infinitive*

**A gerund is a noun made from a verb by adding «-ing». The gerund form of the verb «read» is «reading». You can use a gerund as the subject, the complement, or the object of a sentence.**

### Examples:

- Reading helps you learn English. *subject of sentence*
- Her favorite hobby is reading. *complement of sentence*
- I enjoy reading. *object of sentence*

**Gerunds can be made negative by adding «not».**

### Examples:

- He enjoys networking.
- The best thing for your health is not smoking.





## WHAT IS AN INFINITIVE?

An infinitive is the «to» form of the verb. The infinitive form of «learn» is «to learn». You can also use an infinitive as the subject, the complement, or the object of a sentence.

**Examples:**

- To learn is important. *subject of sentence*
- The most important thing is to learn. *complement of sentence*
- He wants to learn. *object of sentence*

Infinitives can be made negative by adding «not».

**Examples:**

- I decided not to go.
- The most important thing is not to give up.



## USE A GERUND OR AN INFINITIVE?

Both gerunds and infinitives can be used as the subject or the complement of a sentence. However, as subjects or complements, gerunds usually sound more like normal, spoken English, whereas infinitives sound more abstract. In the following sentences, gerunds sound more natural and would be more common in everyday English. Infinitives emphasize the possibility or potential for something and sound more philosophical. If this sounds confusing, just remember that 90% of the time, you will use a gerund as the subject or complement of a sentence.

**Examples:**

- Learning is important. *normal subject*
- To learn is important. *abstract subject – less common*
- The most important thing is learning. *normal complement*
- The most important thing is to learn. *abstract complement – less common*

As the object of a sentence, it is more difficult to choose between a gerund or an infinitive. In such situations, gerunds and infinitives are not normally interchangeable. Usually, the main verb in the sentence determines whether you use a gerund or an infinitive.

**Examples:**

- He enjoys swimming. «Enjoy» requires a gerund.
- He wants to swim. «Want» requires an infinitive.

Some verbs are followed by gerunds as objects.

**Examples:**

- She suggested going to a movie.
- Mary keeps talking about her problems.

Some verbs are followed by infinitives.

**Examples:**

- She wants to go to a movie.
- Mary needs to talk about her problems.



*Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!*

## GERUNDS AND INFINITIVES

Put the verb into either the gerund (-ing) or the infinitive (with «to»)

1. I do not fancy \_\_\_\_\_ (go) out tonight.
2. She avoided \_\_\_\_\_ (tell) him about her plans.
3. She kept \_\_\_\_\_ (talk) during the film.
4. I am learning \_\_\_\_\_ (speak) English.
5. Do you mind \_\_\_\_\_ (give ) a hand?
6. He decided \_\_\_\_\_ (study) biology.
7. He helped me \_\_\_\_\_ (carry) her suitcases.
8. I promise \_\_\_\_\_ (help) you tomorrow.
9. We discussed \_\_\_\_\_ (go) to the cinema, but in the end we stayed at home.
10. She agreed \_\_\_\_\_ (bring) the pudding to the dinner.
11. I do not recommend \_\_\_\_\_ (take) the bus – it takes forever.
12. I do not want \_\_\_\_\_ (leave) yet.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

## INTERESTING FACTS ABOUT EDUCATION AROUND THE WORLD



The students in China receive the most homework in the world. At an average, teenagers do a whopping 14 hours of homework in a week. Consider yourself lucky, you didn't have to!

Iran is one country where girls and boys are educated separately till the time they reach college.

Kids in Finland do not start school until the age of 7, which is one of the oldest ages around the world to start school.

In Brazil, having meals with family is an important part of the culture, which is why schools start at 7 AM and are over by noon so that the kids can have lunch with their parents.

Summer vacations in Chile start from mid-December and end in early March. That's 3 whole months away from school.



Internet sources









- Bu yerga, osma yo'lga!!!

- Aaayyyy!!!

- To'xtal! Yo'q!

ROOOOAAA

SHARAQ

RRR RR

AAAA AAA!

29



Judy osma yo'ldagi vagonchada bir vaqtlar Nik ham xuddi u kabi bo'lishni orzu qilgani haqida bilib oldi.

- O'shanda 8 yoki 9 yoshda edim. «Yosh izquvarlar» to'garigiga kirish orzusida edim.

Men to'garakdagi yagona tulki bo'lishim mumkinligiga qaramay baribir bu guruhda bo'lishni istardim.

...yagona tulki bo'lishim

- Sizlarga nima yomonlik qildim?

- Agar sendek yirtqichni o'z safimizga qo'shishimizni o'ylagan bo'lsang, yanglishasan.

- Agar butun dunyo seni ayyor va vj-donsiz yirtqich deb bilsa, senda boshqacha bo'lishga imkon ham qolmaydi.

- Nik, ammo sen butunlay boshqachasan...

Nik va Judy pastga, shossegga qaradilar...

Shu payt ularda yangi g'oya tug'ildi.

- Kameralar! Bizni qoplon la'qib qilgan joyda kameralar bo'lishi kerak.

- Qoplon qayerga yo'qolgan video-yozuvlarda yozilgan!

31



Judy Buyvolson kelganda unga quturgan qoplon haqida aytib berdi.

- Xo'sh? Qulog'im senda.

- Janob, quturgan qoplonni ko'rgan boshqa guvohlar ham bor.

- Nega endi tulkiga ishonishim kerak?

- Kelishuv shunday edi: Yoki Vidringtonni topasan yoki ishdan bo'shatlasan.

- Nishonni topshir.

- U sizga nishonni topshirmaydi.

- Yanim oydan beri hech kim ocholmayotgan ishni yechishi uchun unga ikki kun berding. Qanday ajoyib-a? Unda mendan yordam so'rashdan boshqa iloji bormi?

- Axir sizlardan hech biringiz unga yordam bermadingiz-ku!

- Gap bunday, shef. Bizda ishni nihoyasiga yetkazishimiz uchun taxminan yana 10 soat vaqtimiz bor.

- Har daqiqamiz g'animal...

30



Tongda ular mer o'rinbosari Barashkis xonimdan yordam so'radilar

- Sizlarga havas qilaman! Katta ish qilyapsiz. Bu ishingizni meniki bilan taqqoslab bo'lmaydi.

- Axir siz mening o'rinbosarisiz-ku.

- Barashkis, qayerdasizl?

- Ketyapman... Nimani aniqlaganingizni keyinroq aytib berarsiz.

- Boshqacha aytganda, kotibaman, xolos. Bu lavozimga egallashimga o'xo'rlar ovozi sabab bo'lgan.

Tropik o'rmondagi video-yozuvlar tekshiruv...

- Tag'in bular kim bo'ldi?

- Mana ahvol, oyni ko'rishlari bilan tamom. Uvvlashni boshlaydilar.

- Auuuu!

Tungi ovchilar!

- Bo'rilar tungi ovchilik qilishadi. Agar qoplon ularning qo'lida bo'lsa, demak...

- Vidrington ham ularning qo'lida bo'lishi mumkin.

DAVOMI BOR

Rus tilidan Muhammadsharif Fayzullayev tarjimasida

32




# SHOFIRKONLIK YOSHLAR OLAMI

**Butun dunyoga xavf solayotgan koronavirus infeksiyasi tufayli barcha o'quvchilarga onlayn darslar berib borildi. Jonkuyar ustozlarning samarali mehnatlari uchun o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi ortsa ortdiki, kamaymadi. Singlim Karomatxonning ta'til davrida kitob javonini kengaytirib, sportning tennis turi bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ko'nglim yorishdi.**

– Pandemiya davri bu xalqimiz boshiga tushgan bir sinov. Biz o'quvchi-yoshlar vaqtdan samarali foydalanib, ustozlarimiz ishonchini oqlashimiz kerak. Dono xalqimiz «Intilganga tole yor», deya bejiz aytishmagan», deya to'liqlanib gapirdi Karomatxon Po'latova.

Yoshlarning qalbidagi shijoatni ko'rib, yurtimizga munosib farzand bo'lish ularning oliy maqsadi ekanini angladim.

Pandemiya davrida o'quvchilar o'rtasida turli tanlovlar o'tkazildi. Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 4-umumta'lim



**Umida SULAYMONOVA,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi*

maktabining iqtidorli o'quvchilari Mohiniso Niyozova, Dildora Po'latova kabi yoshlar matematika, ona tili, ingliz tili fanlaridan fan olimpiadasida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritganligi quvontirdi kishini.

Shofirkonlik yoshlarimiz kelajakda o'zlari orzu qilgan kasb egasi bo'lib, xalqimiz duosini olishlariga ishonamiz.

## DO'STINGNING YUZIGA CHIZASANMI?

Bir kuni uyimizga dugonalarim Salima, Nodira, Nargiza kelishdi. Biz birgalikda kitob o'qiyotgandik.

Bir payt Nargiza kitobning yuziga chiza boshladi. Men va dugonalarim hayron bo'lib qoldik. Shunda Salima:

– Nega kitobga chizyapsan? – deb so'radi.

– Bu kitob meniki, – deb javob berdi Nargiza.

– Axir u sening do'sting-ku, o'z do'stingni ham yuziga chizasanmi? – dedi Nodira.

Shunda Nargiza qilgan ishidan pushaymon bo'ldi. Biz dugonalar Nargizaga kitob hech qachon yomon yo'lga boshlamasligi, kitob o'qigan insonning ongi, dunyoqarashi umu-

man o'zgarib ketishini tushuntirdik. Ota-bobolarimiz kitobni naqadar ulug'lashgani, asrlar osha

yana bir sadoqatli do'st qo'shildi, bu kitob!

**Kitob – bilim bulog'i, O'quvchining o'rtog'i.**

Bu so'zlarni bejizga aytmagan xalqimiz. Aziz do'stlarim, tengdoshlarim, sizlar ham kitobni asrab avaylang.

Kitob bizning do'stimiz.


U ndan biz juda ko'plab saboqlar chiqaramiz. Shuning uchun kitobga mehr qo'yishimiz lozim.

**Feruz**  
**NORMAMATOVA,**  
*Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'quvchisi*



biz yoshlar uchun avaylab-asrab yetkazishgani haqida gapirdik.

Shundan so'ng, dugonamizning ham fikri o'zgardi. Kitoblarni asrab-avaylaydigan, toza, ozoda saqlaydigan va tinmay mutolaa qiladigan bo'ldi. Biz dugonalar safiga



**Vaqt – oqar daryo. Kimdir umri davomida ibratli, xayrli ishlar qilishga ulguradi, kimdir... Ertangi kunining qanday o'tishini hech kim bilmaydi. Ammo umid bilan yashaymiz. Balki ertangi kunimiz qay tarzda o'tishini bilganimizda, barcha ishlarimizni bugun yakunlagan bo'larmidik?! Afsuski, vaqt kutmas ekan.**

## SHUKUR QILISHNI O'RGANDIM

Men yetti yildan buyon volontyorman. Aynan shu yo'nalishda faoliyat olib borayotganimdan juda mamnunman. Shu kunga qadar yuzlab tanlovlar, forumlar tashkil qildim. Minglab konferensiya, anjuman va tanlovlarda qatnashdim. Qisqasi, Vatanim ravnaqiga oz bo'lsa-da, o'z hissamni qo'shdim va qo'shayapman. Bu men uchun baxt! Hozir esa pandemiya sababli harakatimiz cheklanib qoldi. Mana, besh oydirki, vijdonim tinch qo'ymayapti. «Vatanimizda biz yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlardan foydalanib, yutuqlarga erishdik, bayram-u tantanalarida quvondik. Bugun esa yurtimiz, yurtdoshlarimiz boshiga tashvish tushganda, uyda nima qilib o'tiribman?! Qo'limdan kelgan yordamni berib, oz bo'lsa-da, ona yurtimga foydam tegsin...», degan ezgu niyat yuragim tubidan jaranglayapti. Televizor orqali berilgan xabarni ko'rib, «Call centre» tomon oshiqdim. U yerda kunda bo'layotgan minglab qo'ng'iroqlarga imkon darajasida xushmuomalalik bilan, shirin so'zlar bilan javob berish talab qilinardi. Meni yaxshi kutib olishdi. Dezininfeksiya qilib, maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlashdi. Ish boshlashimdan avval vazifamga doir qoida va talablar bilan tanishtirishdi. Vazifamning mohiyatini tushunish, biroz tajriba orttirish maqsadida u yerda faoliyat ko'rsatayotgan aka-opalarimni kuzatdim va tezda o'rganib oldim. Ishim unchalik qiyn emas, ammo juda ham mas'uliyatli. Kun davomida ko'plab insonlarning dardlari-yu tashvishlariga sherik bo'lib, yuragim larzaga keladi. Og'ir ahvolda qolgan insonlar yordam so'rab iltijo qilishadi. Ammo mening qo'limdan keladigan faqatgina murojaatlarni qabul qilishdan iborat, xolos... To'g'ri, balki juda katta ish qilmayotgandirman, biroq shu yurt farzandi, yurtdoshlari taqdiriga befarq bo'lmagan fuqaro sifatida oz bo'lsa-da, nafim tegayotganidan xursandman. Bugungacha taxminan ellikdan ortiq qo'ng'iroqlarga javob berdim. Bir tomondan bu menga zavq berdi. Chunki «Vatanim menga nima berdi, deb emas, aksincha, men Vatanimga nima berdim?!» deb yashashni hamda shukur qilishni o'rgandim...

Men ishonaman, hayotimiz yana o'z iziga tushadi, avvalgidek tinch, osuda, xotirjam, bexavotir turmush tarzimiz yana qaytadi. U kunlarning tezroq kelishi uchun esa har birimiz o'zimizni, yaqinlarimizni ehtiyot qilaylik, aziz tengdoshim!

**Nigora ORIFJONOVA,**  
*Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi*



**FAQAT QIZLAR O'QISIN!**

**KUN TARTIBINGIZNI QAYTA KO'RIB CHIQQINGIZMI?**

**O'quvchi-qizlarimizga ayni ta'til kunlarida ushbu savol bilan murojaat qilsak, javoblar turlicha bo'lishi tayin: kimdir ha, deb javob bersa, yana kimdir, ta'tildamiz-ku axir, kun tartibiga amal qilish shart emas, deydi.**

Kun... Nima u? U kim uchundir 24 soatning yarmi. Kim uchundir umrining bir bo'lagi. Yana bironing uchundir ulg'aytiruvchi, soat-soat kamolga yetkazuvchi oltinga teng damlar...

Aziz qizlarjon, biz kun siz uchun uchinchi javobdagidek ma'no kasb etishini xohlaymiz. Buning uchun esa ayni ta'til kunlarida ham kun tartibingizni tuzib olishingiz va unga qat'iy amal qilishingiz kerak. Chunki bu yilgi ta'tilingizning odatdagidek uch oy davom etishi, 1 sentyabr dan maktablarda o'qishlar boshlanishi haqida aniq bir gap aytish qiyin. Qachon avvalgidek turmush tarzimizni davom ettirishimiz mumkinligi noaniq bo'lib turgan bir sharoitda har bir kuningizni mazmunli, foydali o'tkazishga intiling, buning uchun, eng avvalo, barvaqt uyg'oning, xuddi maktab davridagidek. Shundagina kuningizda

unum bo'ladi. Badantariya mashqlarini bajarishga aslo erinmang. Chunki salomatlik bebaho boyligimiz, boylikni esa bolalikdanoq asrash, mustahkamlab borishimiz zarur.

«Gul o'ssa – yerning, qiz o'ssa uyning ko'rki» degan go'zal ibora bor so'zliklarimizda. Darhaqiqat, qizi bor xonadonning fayz-u tarovati bo'lakcha bo'ladi. Qachon eshik qoqsangiz, hovlidagi sarishtalik, ozodalikdan bahri dilingiz ochiladi, nafis gul-u rayhonlarning muattar ifori ko'ngillarni ravshan qiladi. Umid qilamizki, siz ulg'ayayotgan xonadon ham shunday, aziz qizlarjon. Zero, ozodagarchilik, sarishtalik xalqimizga xos fazilat, qadim qadriyatlarimizdan biri. Shunday ekan, xonadoningizni, hovli va darvozangiz atroflarini sarishta tutishga yoshlikdanoq odatlaning. Buning uchun kuningizning ma'lum bir qismini ajrating. Ayniqsa, o'z xonangiz ozodaligi, kiyim, kitob javonlaringizning batartibligiga alohida ahamiyat qarating.

Yana ko'p vaqtingizni oshxonada o'tkazing. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi-yangi taomlar, turli shirinlik va salatlarni tayyorlashni o'rganing, ularni tayyorlab, oilaviy taomlaringiz ro'yxatiga yangilik kiriting.

Yaqinda bir manbaada o'qib qoldim: Yaponiyada har bir oilada har kuni 40 daqiqalik mutolaa vaqti belgilangan ekan. Ayni kunlarda sizning ham bo'sh vaqtingiz ko'p. Siz ham har kuni bir vaqtda mutolaa soatini belgilang. Uka va singillaringizni ham yoningizga olib, qo'llariga yoshiga yarasha kitob bering. Ular bilan o'qigan kitoblari yuzasidan savol-javob, bahs va munozaralar uyushtiring. Zero, kitobdan yaxshi do'st, suhbatdosh, maslahatgo'y yo'q. Qolaversa, mutolaa dunyoqarashingizni kengaytiradi, bilimingizni boyitadi, o'z oldingizga qo'ygan maqsadlaringiz sari yetaklaydi.

**Yaxshi qiz – uy xazinasi.**

**Sizni kamol topishingizda eng katta yordam bu kitob.**

Darvoqe, maqsadlar haqida. Yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy faol, uzoq yillardan buyon rahbarlik lavozimlarida mehnat qilib kelayotgan ayollarimiz bilan o'smir qizlarimizning uchrashuvi bo'lib o'tgandi. – Ayting-chi, dam olish kunlari ertalab soat nechida uyg'onasiz?

– deb so'radi sirdaryolik bir qiz

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari Svetlana Ortiqovadan.

– Men uchun kunlarning farqi yo'q, – javob bergandi Svetlana opa. – Dam olish kunlari ham odatdagidek, barvaqt uyg'onaman. Badantariyani kanda qilmayman. Kunimni avvaldan rejalashtirib olaman. Kun tartibimda badiiy kitob o'qish uchun ham albatta, vaqt ajrataman. Sevimli mashg'ulotim bilan ham shug'ulla-

naman. Erta tongda uyg'onganim uchun hordiq chiqarishga, sevimli mashg'ulotim bilan shug'ullanishga ham ulguraman...

Men bu savol-javobni bejiz keltirganim yo'q, qizlarjon. Ma'lumki, har biringizning qalbingizda bir olam orzular bor. O'z oldingizga katta-katta maqsadlar qo'ygansiz. Ularga yetishish uchun esa astoydil mehnat qilishingiz, ya'ni o'qib-o'rganishingiz, bolalikdanoq kunlaringizni to'g'ri taqsimlashni, ulardan unumli foydalanishni o'rganishingiz kerak. Yurtimizda oilada ham, jamiyatda ham o'z munosib o'rni ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy faol ayollar juda ko'p. Ularga havas qilmaydigan qizlar topilmasa kerak, orangizda.

Siz ham hozirdanoq o'zingizni tarbiyalab borsangiz, kun tartibiga amal qilgan holda yashashni o'rgansangiz, kun kelib ulardek bo'lishingiz, shubhasiz.

Butun dunyoni o'z izmiga solgan tojkor virus – «COVID-19»ni mavsumiy xastalik bo'lib, u tez orada yurtimizni tark etadi, deya umid bilan yashayotgan edik. Afsuski, bu ko'rinmas yov hali-beri taslim bo'lmaydigan ko'rindi. Demak, biz ham pandemiya sharoitida yashashni o'rganishimiz kerak ekan. Sizga bu jarayonni kun tartibingizni qayta ko'rib chiqishdan boshlashni tavsiya qilamiz. Shundagina hayotingiz mazmunli, kunlaringiz samarali o'tadi. Bugun o'rganganlaringiz kelajak hayotingizda, albatta, asqotishiga biz kafilmiz. Hamisha o'zingiz, yaqinlaringiz, atrofdagilar salomatligini asrang!

**«Gul o'ssa – yerning, qiz o'ssa uyning ko'rki.»**

Feruz JALILOVA





## O'QUVCHILARIM

«SHE'RIYAT GULSHANI»  
SAHIFAMIZ MEHMONI

## TANLOVLAR G'OLIBI

«She'riyat gulshani» to'garagiga 2012-yildan buyon rahbarlik qilaman. O'quvchilarim orasida iste'dodlari talaygina. Ular ko'plab ijodiy tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelishmoqda. Jumladan, Xiyola Yo'ldosheva «Kamalak» yulduzlari» tanlovining shahar bosqichi g'olibi bo'lgan bo'lsa, Madina Rahmatullayeva «Jaholatga qarshi ma'rifat» tanlovining respublika bosqichida peshqadamlikni qo'lga kiritdi. Dilbar Normahmatova esa «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanlovining



insho yo'nalishi bo'yicha respublika bosqichi g'olibi bo'ldi. 2020-yilda o'tkazilgan «Men muallifman» respublika tanlovining shahar bosqichida nasr yo'nalishida ishtirok etgan Jalilbek Sharifjonov birinchilikni qo'lga kiritdi. Turli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritayotgan o'quvchilarim ijodidan namunalar yuboryapman. Ayni ta'til kunlarida ham to'garak mashg'ulotlarini onlayn tarzda davom ettirayotganimizdan shogirdlarim ham, men ham mamnunmiz.

**Muhiba RAJABOVA,**  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
283-umumta'lim maktabining «She'riyat  
gulshani» to'garagi rahbari



## ONA VATAN

Ona Vatan bag'rida,  
O'ynab, kulib yashaymiz.  
Dilda quvonch ulashib,  
Sho'x-sho'x qo'shiq kuylaymiz.

O'zbekiston Vatanim,  
Udir mening chamanim.  
Bolalari beg'ubor,  
Qalblari misli bahor.

**Dilorom MUHIDDINOVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq  
tumanidagi 40-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



## TONG

Quyoshli tong otmoqda,  
Chiroyli oy botmoqda.  
Mayin shabada esar,  
Borliq uzra tong kezar.

Turfa qushlar ovozi,  
Jaranglaydi sho'x sozi.  
Joy ham shildirab oqar,  
Ko'ngillarga xush yoqar.  
Muattar ajib gullar,  
Rosa yayraydi dillar.  
Quyosh jilmayib boqar,  
Tafti bizga xush yoqar.

Shunday ajib tong otdi,  
Oy ham qaygadir botdi.  
Xayrli bo'lsin kuning,  
Quvonchga to'lsin uying.

## NON

Tandirdan chiqqan polvon,  
Uning nomi «lazzat non».  
Un bilan suv talashib,  
Xamir bo'ldi birlashib.

Xamir olib zo'r shakl,  
Tandir tomon yo'l solar.  
Tandirga kirgandan so'ng,  
Yotib biroz dam olar.

Bu mo'jiza yo sehr,  
Yangi libos kiydi non.  
Xushbo'y hidin taratib,  
O'zin «ko'z-ko'z»lar har on.

Nondir eng aziz ne'mat,  
Buni hamma biladi.  
Uni tayyorlash uchun,  
Ko'plar mehnat qiladi.

Nondir mazali, xushta'm,  
Unda bor o'zgacha ta'm!

**Jalilbek SHARIFJONOV**



## YURT BOLALARI

Kelajagi nurli, qadami qutlug',  
Bobolari kabi viqorli, ulug'.  
Yurti uchun doim yuragi yoniq,  
Yurtning bolalari – yurt lolalari.

Ibn Sino kabi izlanishda u,  
Buyuk Buxoriydek sizlanishda u.  
Navoiydan o'qib oladi ta'lim,  
Yurtning bolalari – gul-lolalari.

Yurtboshim imkonlar eshigin ochdi,  
Ustozlar siz uchun ming saboq sochdi.  
Vatan ertasi-chun uyg'oning, o'qing,  
Yurtga qalqon bo'ling, yurt bolalari!

**Begoyim NASULLAYEVA**

## KITOB DUNYOSI

Kitoblar olami – o'zgacha dunyo,  
Seni qamrab olar mo'jiza, sehr.  
Kitob nega buncha diltortar, a'lo  
Nega uzolmayman undan hech mehr.

Kitob olamida go'yo kezaman,  
Shirin bir tuyg'uga bo'laman asir.  
Shu hisni hech qachon unutilmayman,  
Kitobim, men sendan topaman huzur.

**Ziyoda KARIMOVA**



## ISSIQ MAKON

Ona qalbi kabi issiq makonsan,  
Mehrga, sevgiga to'la xazina.  
O'lis ketib qolsam, mo'ltirab qarab,  
Otamdek sog'ingan, tolmagan sira.

## OFTOB KABI YORITAR YO'LIM

Kitob oftob kabi yoritar yo'lim,  
Hamrohim, sirdoshim, dugonamdir u.  
Usiz yasholmasman, hayot shiorim:  
«O'qi, izlan, kelajak mevasidir bu».  
Kitob Buxoriyni ko'kka ko'tardi,  
Hazrat Navoiyni qo'lidan tutdi.  
Ma'nan ulg'aytirdi Bobur Mirzoni,  
Buyuk Temurni ham yuksaltirdi u.  
Kitob, hayotimning bo'lagi bo'lib,  
Qo'llarimdan tutib yuksaltir meni.  
Buxoriy yo'lini, Navoiy ilmini,  
Qalbingga jo qilgin, unutmay seni.

**Go'zal ZAYNIDDINOVA**



## TABIAT QO'YNIDA

Yozning saxiyligi dehqon bobodek,  
Bir qo'lida olma, bir qo'lida nok.  
Bog'dan mo'ralaydi uzumlar qator,  
Cho'zilib yotadi bobom ekkank tok.

Shaftolining yuzi qizarib ketdi,  
Sharbati tomadi asaldek chak-chak.  
Quyosh mo'ralaydi havas-la boqqa,  
Namuncha tabiat go'zal, xushsurat?!

**Sabina ISMOILOVA**

## YOZIM, YAXSHISAN!

Ko'nglim sarafroz,  
Kirib keldi yoz,  
Qushlar jo'rovov,  
Yozim, yaxshisan!

Sochimiz to'zib,  
Anhorda suzib,  
Mevalar uzib,  
Yozim, yaxshisan!

Saxiy quyoshim,  
Yulduz yo'ldoshim,  
Oy ham sirdoshim,  
Yozim, yaxshisan!

Tafti qaynog'im,  
Tiniq bulog'im,  
O'zing o'rtog'im,  
Yozim, yaxshisan!

Tog'lar kezaman,  
Bog'lar kezaman,  
Mehring sezaman,  
Yozim, yaxshisan!

Yoz – o'tmoqda soz,  
Dilim xushpardoz,  
Etayin e'zoz,  
Yozim, yaxshisan!

**Hanifa ABDUHOSHIMOVA,**  
Sirdaryo viloyati, Sayxunobod  
tumanidagi 23-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



(Davomi.)

**Boshi o'tgan sonda**

**YANGI DASTUR  
IXTIROSIGA QO'L  
URGANIM**

Bizning qishloq maktabimizga buyuk bobokalonimiz Al-Xorazmiy nomi berilgan. Ammo bu yerda ham shahar maktablarinikidan qolishmaydigan, ular bilan bemaol bellasha oladigan imkoniyatlar mavjud. Shinam o'quv xonalari, zamonaviy kompyuter xonasi, trenajorlar bilan jihozlangan sport zali, basseyn, musiqa xonalarida barcha sharoitlar muhayyo.

Kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan. Men maktabimizning axborot texnologiyalariga chuqurlashtirilgan sinfida o'qiyman. Ingliz tili kursiga muntazam qatnayman. Sinfimizda ko'p bolalar ingliz tilini yaxshi bilishadi. Internet-forumda men ham qatnashib, ba'zan o'zimning yangi loyihalarimni tanlovlar uchun taqdim etib turaman.

Bir kuni dars oldidan ustozimiz Odil Nosirovich meni chetga tortdi-da, «Mashg'ulotlardan so'ng xonamga kir», deb tayinladi.

Bu muallim menga yo'nalish bo'yicha murabbiy hisoblanib, loyihalarni yaratishimda yaqindan yordam beradi. Tinchlikmikan, deb o'yladim ichimda. Kecha mendan bir sinf yuqorida o'qiydigan, yaxshi gapga ko'nmaydigan mushtumzo'r Jobirni bir sinf kichik bo'lgan Nozimani xafa qilgani uchun burnini yerga ishqab qo'ygandim. U arz qildimikan, endi uydagilar ehsitsa, nima bo'ladi?!

Aslida, mening bunda aybim yo'q. Jobir Nozimani uyatsiz so'zlar bilan haqoratladi. Men, «Qiz bolaga unday dema», degandim, u esa kelib yelkamga musht tushirdi. Zarbdan qalqib ketib, yerga yiqildim. Ustimga kelib, he yo'q-be yo'q do'pposlay boshladi. Men esa noiloj amakim o'rgatgan kuchli usullardan birini qo'llashga majbur bo'ldim. Jobirni belidan mahkam tutdim-da, boshim ustidan aylantirib yerga urdim.

Jobir bir zum yerda yotdi. Ko'zlariga biroz yosh keldi. Qo'lingni ber, deb qo'limni uzatdim. Yo alamidan yo g'azabidan qo'lini uzatmadi. Shitob bilan o'rnidan turdi-da, ortiga qaramay ketib qoldi. Bir payt qarasma, atrofim to'la tomoshabin. Ha, ular maktabning «Birinchi shefi»ni ag'darganimni ko'rib, hayratda qolgandilar.

Shunday bo'lsa-da, Jobir mard yigit ekan. Ikki kundan keyin kelib:

– Olimjon, senga tan berdim. Seni olim desam, binoyidek polvon ekansan. Qo'lini tashla, qalin do'st bo'lamiz. Bo'lgan voqea shu yerda unutiladi. Araz qilish yo'q, – dedi.

– Gap yo'q, do'st bo'lamiz, – dedim-u, qo'l uzatdim.

Darslar tugab, Odil Nosirovichning yoniga kirdim. Salom-alikdan so'ng ustoz maqsadga ko'chdi. Men esa nima haqda gap boshlarkin, ishqilib Jobir haqida bo'lmasin-da, degan hadik bilan unga tikildim:

– Olimjon, Internet-forumga yuborgan navbatdagi yangi dasturing yodingdami?!

– Ha, albatta, – dedim ichimda «Xudoga shukur-ey», deya. – Tinchlikmi, ustoz?!

Domla yuzimga sinovchan tikildi va so'zida davom etdi:

– Sening shu loyihang ekspertlar tomonidan ma'qullanibdi.

– Zo'r-ku!

– Shuning uchun seni bir haftalik

net tarmog'idagi qidiruv dasturi orqali umuman topa olmadim. Bu belgilarni internet tarmog'i javobini berish tugul, hatto qabul qilmasdi. Tugmani bosishim bilan ingliz tilidagi «Rad etildi!» javobini berardi. Tavba, bu belgilarni elektron shaklda, internet tarmog'idan topgandim. Endi esa bu belgilar haqida internetning o'zi hech narsa bilmaydi. Nima balo, bu shakllar osmondan tushdimi, deymam ming'irlab. Xunobim oshadi. Axir bu belgilar kodini yechmay turib dasturimni yakuniga yetkazolmayman. Vaqt esa oz. Toshkentga safar qilish onlari yaqinlashmoqda.

Qandaydir bir sirli ishora ro'pa-



Otabek QUVVAT

**OLIMJONNING  
SARGUZASHTLARI  
YOXUD  
ZAMON VA MAKON  
ORALIG'IDA**

(Sarguzasht-fantastik qissa)

forumga, poytaxtimiz – Toshkent shahriga jo'natamiz loyihang taqdimotini amalga oshirishga. Faqat uni tugal holatda taqdim qilishing kerak.

– Men tayyorman, – dedim quvonib.

– Astoydil harakat qil, sendan umidimiz katta.

**SIRLI KALIT  
BELGISI IZIDAN**

Uyga kelib, xushxabarni amakimga, keyin esa uydagilarimga aytdim. Amakim bundan xursand bo'lib:

– Sen uchun xazinamning eshiklari lang ochiq. Qanaqa ma'lumotga ehtiyoj sezsang, kitoblarni varaqlab ko'rishing mumkin. Senga berilgan topshiriqni bajarishingga yo'l ochilyapti.

Ishni avval amakimning kutubxonasidan boshlayman, dedim o'zimga-o'zim. Chunki dasturim bilan bog'liq jarayonda shunday tushunarsiz, menga qandaydir sirli tuyulgan shakl va belgilarga duch keldimki, ular bir jumboqqa o'xshab kodli belgilarni eslatardi. Ular birlashtirilsa, go'yo kalit shaklini oladi. Ma'nosini inter-

ramdan chiqqandek edi. O'zi shundoq ham sirli narsalarga juda qiziqaman. Ularni yechish jon-u dilim. Endi qarangki, ajib bir tilsimga duch kelib turibman. Shu damda yodingma bir filmda aytilgan dono fikr keldi: «Kimki o'z maqsadiga yetishni astoydil istasa va unga intilsa, butun bir koinot unga yordamga keladi». Ha, rostdan ham shunday. Yodam ham butun olam, koinot yordam bermoqchiga o'xshaydi. Bu esa mendan astoydil harakatni talab qiladi.

Balki belgilar qadimiydir, deya o'ylayman ichimda. Ular eski kitoblarda aks etgandir. Chunki internetdan topilmagan ma'lumotlarni eski kitoblardan topish mumkin. Shu umidda kutubxonaga kirib olganimcha o'sha yerdan chiqmayman. Barcha kitoblarni varaqlayman. Bir kitobni ko'rayotgan chog'imda ajib shakllarga duch keldim. Bu chiziqalar menga internetda duch kelgan belgilarni eslatayotgandek edi. Yuragim shuv etib ketdi. Topaman shekilli. Bular formulamikan, deb o'ylab, mag'zini chaqishga harakat qildim. Ammo ular formula yoki tenglama ma'nosini bildirmasdi. Shakli esa

saroy kalitlarining ko'rinishini eslatardi. Zig'ig'i, bu belgi kitobning ko'p joylarida takror kelgan. Bunda nimadir yashiringan, deymam o'zimcha.

O'ylanib, boshimni qashlayverganimgan tepa sochim tikka-tikka bo'lib, uyqusizlikdan ko'zlarim qizarib ketibdi. Yana o'zimga nimalarnidir gapirib turganimni ko'rgan onamning eski xavotiri qo'zidi:

– Bolam, senga yana nimadir bo'lyapti, shekilli. Bir do'xtirga ko'rinib kelmaymizmi?

– O'yjib, mendan xavotir bo'lmang, vahima qilmang. Mening es-hushim joyida. Faqat bir narsani izlayapman. Shuni topsam, ishlarim rivojlanadi. Uning o'rniga duo qiling. O'sha savolimga javob topay.

Onalarning hammasi shu. Bolalari uchun barcha mashaqqatga tayyor. Onaginam darrov qo'llarini ochib, duoga tushib ketdilar:

– Ey Xudoyim, ilohim, bolajonimning izlagan narsasini topishida madad ber. Qidirganini topsin. Istagan niyatiga yetsin!

Duo qiladilar-u, yana xavotirlanib so'rab qo'yadilar:

– Bolam, o'zi qidirganing yaxshi narsami? Tag'in allaqanday yomon ishlarni qilib, yomonlarga aralashib yurmagin!

– Voy o'zimgin qalbi toza onajonim-ey, xavotir bo'lmang, agar shu narsani topsam va ko'zlagan ishimi amalga oshirsam, dunyoda yomon odamlar qolmaydi hisobi, – deb sodda onamga maqtanib ham qo'yaman.

Onam yana duo qilishga tushib ketadilar.

Maktabga borganimda ham darslarda allaqanday xayollar bilan o'tiraman. Buni sinfdoshlarim ham sezadi. Tasavvurim bir tarixga, bir ertaklar olamiga qarab ketadi.

Bir kuni ona tili darsida ana shunday xayollar bilan tursam, ustozimiz:

– Olimjon, aytgin-chi, ega va kesim nechanchi darajali gap bo'laklari? – deb so'rab qoldi.

Men esa miyamda sirli kalit tilsimini o'yab turgan edim. Shu xayol bilan ikkinchi darajali bo'lak deb yuborsam bo'ladimi... Ustoz tutagandan tutab ketdi. Chunki u «Meni ermak qilyapti», deb o'ylagan edi va bunga javoban shunday dedi:

– Maktabning yulduziman, deb hadeb yulduzdek porlashni emas, nur taratib, o'zingga chorlashni o'rgan! Kompyuter qarshisida o'tiraverib, mukkangdan ketib, g'alati bo'lib qolibsan. Aslida, sening puch xayollaring ikkinchi darajali. Uqdingmi? Darsda xayolingni yig'ishtirib o'tirgin.

Men esa es-hushimni yig'ib oldim-da:

– Uzi, ustoz. Xo'p bo'ladi, – deb javob berdim.

(Davomi bor)



# QONUN HAMMAGA BAROBAR(MI)?!

**Ayni kunlarda barchamiz murakkab, sinovli kunlarni boshimizdan kechiryapmiz. Butun dunyo bo'ylab tez va shiddat bilan tarqalayotgan tojsimon virus hammaga birdek xavf solmoqda. Insonlarni uyda qoldirish maqsadida karantin qoidalarini ishlab ham chiqildi. Koronavirus yosh-u qariga birdek ta'sir qilyapti, ammo karantin qoidalari-chi? Ular ham hamma uchun barobarmi?**

Mahallamizga 3 ta kirish yo'li bor. Shu uchta yo'lni to'rt nafardan Ichki ishlar xodimlari nazorat qilib turishadi. Mahallaga kirayotgan, chiqayotgan odamlarni to'xtatib, qayerga, nima maqsadda ketayotganini so'rashadi. Niqobini noto'g'ri taqib yurganlarga tanbeh berishadi, bemaqsad yurganlar bilan tushuntirish ishlarini olib borishadi, karantin qoidalarini takroran buzganlarni jazolashadi. Shuning uchun ham ko'pchilik qonunbuzarlar ulardan noo'rin ranjishadi.

Meni bir holat jiddiy tashvishlantiradi: karantin qoidalari o'z vaqtida kuchaytirilganiga qaramay, ayrim kafelar, choyxonalar o'z faoliyatini davom ettiraverdi, tug'ilgan kunlar, ommaviy tadbirlar o'tkazayotganlar ham uchradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, karantin qoidalarini eng ko'p buzganlar yoshlar, o'smirlar ekan. Aslida

ham shunday, jamoat joylarida, ko'cha-ko'yda niqobni iyagiga ilib olgan



o'smirlarni ko'p uchratamiz. Allamahalgacha mahallada, ko'p qavatli uylar atrofiga to'planib olib, odamlarning tinchini buzayotgan yoshlar ham yo'q emas. Karantin joriy qilingan ilk kunlarda deyarli har bir tashkilot, savdo shohobchalari kiraverishida mas'ul xodim tomonidan kirayotganlarning haroratini o'lchanib, qo'lga zararsizlantiruvchi anti-

septik vosita sepilardi. Hozir esa ularni ayrim joylarda kunduzi chiroq yoqib ham topa olmaysiz! So'nggi kunlarda aholi orasida tojli virus bilan zararlanganlar soni ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. O'lim holatlari soni ham kun sayin ortyapti. Nahotki, bu tashvishli raqamlar, noxush ma'lumotlar hamyurtlarimizni ogohlikka, ehtiyotkorlikka chorlamasa?!

**Azizbek  
ABDUMALIKOV,  
poytaxtimizdagi  
202-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi**

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

### «O-O» – TOPQIRLIK MASHQLARI

**Eniga:** 1. Zeb, pardoz. 2. Sport musobaqalarida yutuqni belgilash uchun beriladigan hisob birligi. 3. Yevropadagi poytaxt shahar. 4. Qit'a. 5. AQSH shtati. 6. XIX asr ikkinchi yarmi – XX

asr boshlarida yashab ijod qilgan polyak adibasi, «Marta» romani muallifi. 7. Janubiy Amerikaning Venesuela va Kolumbiya hududlaridan oqib o'tuvchi daryo. 8. Kanadadagi ma'muriy markazi

Toronto shahri hisoblanuvchi provinsiya. 9. O'ziga tortuvchi, jalb etuvchi ma'nosidagi so'z.

**Topshiriq:** Shaklning o'ninchi qatoridagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi)

yuqoridagi javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan Moskva shahri yaqinidagi televideniye markazi minorasining nomi ayon bo'ladi.

**Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV**

1		*	*	*	*	*	*	
2			*	*	*	*	*	
3			*	*	*	*	*	
4				*	*	*	*	
5				*	*	*	*	
6					*	*	*	
7						*	*	
8						*	*	
9							*	
10		3/2	8/3	5/3	7/4	6/5	4/3	9/4



*O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, shijoat hamda ma'naviy oзуqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqtning qanchalar tez o'tishini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.*

## **Har bir tengdoshimni: «QAYSI KASBNI EGALLASAM EKAN?» degan savol o'ylantiradi**



Ba'zilar «Inson bajarayotgan ishi tufayli katta daromad olsa bo'ldi-da, bu mashg'ulotning unga yoqish-yoqmasligi ikkinchi darajali masala», deb hisoblashadi. O'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon kasbidan baraka topmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini sevmay, moddiy manfaat uchungina ishlayotganlarning esa kuni zerikarli tarzda, bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana oladigan oddiy poyabzal ta'mirllovchisi yirik bir tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida faoliyat olib borayotgan, ammo o'z ishidan zavq ololmaydigan xodimdan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin ekan.

Kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ertami-kechmi, tengdoshlarim, «Kelajakda qaysi kasbni egallasam ekan?» degan savol o'ylantiradi.

Bu ancha jiddiy savol, uni chuqur o'ylab ko'rish kerak. Birinchidan, qiziqishlaringizni hisobga olishingiz kerak. Ikkinchidan, o'z qobiliyatingizni to'g'ri baholang. Uchinchidan, shaxsiy fazilatlaringiz tanlagan kasbingizga mutanosib ekanligini tahlil qiling. To'rtinchidan, u yoki bu mutaxassislikning istiqbolini o'rganing.

Masalan, men o'zimni ochiq ijodkor, tezkor fikrlay oladigan, sabrli, g'ayratli, harakatchan, har qanday sharoitga tez moslashuvchan va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega inson deb hisoblayman. Mashhur yozuvchi Ivan Bunin: «Uch narsa kishini xursand qiladi: muhabbat, qiziqarli ish va sayohat qilish imkoniyati», deb yozganida nechog'li haq edi.

Qadri tengdoshim, siz ham quyidagi savollar atrofida jiddiy mulohaza yuriting: qaysi soha siz uchun qulay, qaysi soha sizning yo'nalishingizda katta muvaffaqiyat olib keladi va qaysi kasbni egallasangiz yetakchi mutaxassis bo'la olasiz?

Barcha maqsad, niyat aqlning sharofati bilan amalga oshadi. Aql faqat insongagina xos bo'lgan jihat. Bu jihatni intilish, harakatgina yanada kuchaytiradi. Xulosa shu: yo kasbingizning ustasi bo'ling yoki boshqa sohada o'zingizni sinab ko'ring.

**Marjona JO'RAQULOVA,**  
Qarshi shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## **XATOLARIMIZNI ANGLAYMIZ**

*Olimlar uzoq yillardan buyon insonlarning turli sharoitda qabul qilgan turlicha qarorlari borasida bahslashib keladilar. So'nggi o'ttiz yil davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar inson psixologiyasiga oid ko'plab jumboqlar sirini oshkor etdi. Quyida hayotimizda tez-tez yo'l qo'yiladigan xatoliklar borasida so'z yuritimiz.*


### **NOTO'G'RI XULOSA**

Biz ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan mashhur insonlar hayoti haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz. O'zimiz uchun ideal qahramon sifatida qabul qilgan bu insonlarga ko'r-ko'rona taqlid qilamiz. Biroq shuni unutmangki, har bir insonning o'z hayoti va o'zgacha muvaffaqiyat yo'li mavjud. Maktab-u universitetdagi o'qishini tashlab ketgan hamma odamlar ham Nyuton yoki Bill Geyts bo'la olmaydi. Yoki kecha-yu kunduz tinimsiz mashq qilgan minglab bolalar ham Kristiano Ronaldu kabi mohir futbolchi bo'lib yetishmaydi.

Shunday ekan, o'z kuch va qobiliyatingizni to'g'ri yo'naltiring! O'z yo'lingizni to'g'ri tanlang!

### **YO'QOTISHLARDAN QO'RQISH**

Qo'rquv xatolarning asosidir. Ko'plab muammolar u sabab yuzaga keladi. Natija esa qurbonlik talab qiladi. Biz o'zimiz to'g'ri deb bilgan fikrlarni qat'iy turib himoya qilamiz. O'zimiz ko'nikkan odatlar-u turmush tarzimizdan voz kechish qiyin, albatta. Ammo o'zgarishlarsiz rivojlanish bo'lmasligini anglashimiz zarur. Yangiliklardan, yangilanishlardan qo'rqmang!



### **XOLISONA NAZAR**

Agar biz sizga, hozirgi davr insoniyat tarixidagi eng tinch va yaxshi davr, desak, ko'pchiligingiz buni inkor etasiz. Ehtimol «Agar zamon tinch bo'lsa, nega yer sharining bir yerida toshqin, bir yerida qurg'oqchilik, yana bir yerida esa qirg'inbarot urushlar bo'lyapti», deya e'tiroz ham bildirarsiz. Sizga javobimiz shunday: «Har qanday xabarning qanoti bor. Ayniqsa, yomon xabar tez tarqaladi. Bunday noxush xabarlar diqqatimizni boshqalariga qaraganda ko'proq tortadi. Ongimiz detallarni bo'rttirib ko'rsatishga odatlangan. Tinimsiz qabul qilingan noxush xabarlar butun borliq haqidagi tasavvurimizni noto'g'ri shakllantiradi. Unutmang, dunyo ajoyibotlarga boy. Sizni esa oldinda ko'plab quvonchli kunlar, porloq kelajak kutmoqda!

### **BU YAGONA YO'L EMAS...**

Inson aksar hollarda biror hodisaga diqqatini qaratganida, uni har jihatdan tahlil qilolmaydi. Bu esa aynan shu vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilishiga to'sqinlik qiladi. Har kim biror qaror qabul qilishdan avval masalaga atroflicha yondashib, chuqur o'rganib chiqishi zarur. Shundagina vaziyatni to'g'ri baholab, unga haqqoniy baho bera olasiz.

### **TAN OLISH HAM MARDLIK**

Shaxsning ma'lum bir masalada o'z fikrini o'zgartirishi bu mu-rakkab masala. Chunki insonda faqat o'z fikrini mustahkamlovchi faktlarni yodda saqlash, uni inkor etadiganlarini nazardan chetda qoldirish va unutish kabi odatlar mavjud. Shunday ekan, har bir masala xususida o'zgarlar fikrini ham tinglay bilish, asosli bo'lsa, o'z fikrining noto'g'ri ekanligini tan olish, uni o'zgartirish ham mardlikdir.

**O'z muxbirimiz**





## SIZ MENING BORIMSIZ, JONIM ONAJON!

Onamni e'zozlay, duosin olay,  
Qadrdon qalbiga mehrimni sochib.  
Aziz onajonim qadriga yetib,  
Doimo yonida o'zim bo'layin.

Quvonib hayotda baxtimni ko'rsin,  
Ezguli tilagim qalbmida bo'lsin.  
Hamisha qo'llari duoda bo'lsin,  
Siz mening borimsiz, jonim onajon.

Hayotim sizensiz qorong'u bo'lar,  
Yonimda bo'lsangiz charog'on bo'lar.  
Kunlarim shu uchun sehrli bo'lar,  
Siz mening borimsiz, jonim onajon.

Odobdan, axloqdan hikoya qilib,  
O'qi deb qo'limga kitoblari berib.  
Erkalab injiqlik qilsam ham kulib,  
Siz mening borimsiz, jonim onajon.

Siz menga hamisha yaxshilik tilab,  
Tongda turib duo, niyatlar qilib.  
Allohdan baxtimiz ko'ray, deb so'rab,  
Siz mening borimsiz, jonim onajon.

**Dinora DAVLATOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi  
49-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## TAVALLUDING MUBORAK, DO'STIM

«Tong yulduzi» – ong yulduzim,  
Necha yilki sen-la o'sdim.  
To'qson bir yosh ko'rding bugun,  
Tavalluding muborak, do'stim.

Ziyo sochgan «Tong yulduzi»m,  
Sen-la shod yorug' yuzim.  
Yosh mushtariy aytaman so'zim,  
Tavalluding muborak, do'stim.

Solar qalbga Vatan ishqin,  
Muxlislari xursand jo'shqin.  
Yuragimda hislar toshqin,  
Tavalluding muborak, do'stim.

**Salohiddinjon SAYFIYEV,**  
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi  
118-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## YURTIM MADHI

Bayrog'ing qo'limda hilpirab turar,  
Hamisha yuragim jo'sh urib turar,  
Osmonda yulduzing go'zal charaqlar,  
Yurakda Vatanim faxri barq urar.

Sening chiroyingdir go'zal bu bo'ston,  
Tashakkur aytarmiz, ey O'zbekiston,  
Senga sadoqatni aylaymiz doston,  
Biznikidir shu keng, go'zal bu makon.

Qara, sen bu baxtli farzandlaringga,  
Axir sen yo'l ochding dilbandlaringga,  
Ta'zim aylash joiz ajdodlaringga,  
Men bugun madh etib she'r yozdim senga.

**Maftuna BOBOMURODOVA,**  
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi  
42-umumta'lim maktabi o'quvchisi




# RANGLAR JILOSII

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabi  
2-«B» sinf o'quvchilarining ijodiy ishlari



**Murodjon SHOKIROV**



**Ruxshona A'ZAMOVA**



**Sevinch FAZLIDDINOVA**

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruzza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti administratsiyasi  
huzuridagi axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi-  
da 0208-raqam bilan 2019-yil  
10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAYATI:**

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SADULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruzza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Nodira NAZAROVA

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etiladi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati  
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@gmail.com](mailto:tongyulduzi1929@gmail.com)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi - 1892  
Buyurtma - V 4286

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi  
uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni  
chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08